

## MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASH JARAYONIDA JADIDLARNING O‘RNI

**I.M. Xaydarov**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti “Markaziy Osiyo xalqlari tarixi”  
kafedrasi professori, tarix fanlari doktori(DSc)*

*E-mail: izzatillakhon@gmail.com*

**Siddiqov Otabek**

*Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, “Sharq mamlakatlari tarixi”  
yo‘nalishi 2-kurs talabasi.*

*E-mail: siddiqovotabek552@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakatining milliy o‘zlikni anglash jarayoniga ko‘rsatgan ta’siri kompleks tarzda tahlil qilinadi. Tadqiqotda jadid ma’rifatparvarlarining ta’lim tizimini isloh qilish, matbuotni rivojlantirish hamda madaniy muhitni yangilash borasidagi faoliyati asosida jamiyatda yuz bergan ijtimoiy va ma’naviy o‘zgarishlar yoritiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *jadidchilik, milliy o‘zlik, milliy ong, ma’rifat, Turkiston, identitet, modernizatsiya, ta’lim islohoti.*

## РОЛЬ ДЖАДИДСКОГО ДВИЖЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ

**Аннотация:** *В данной статье проводится комплексный анализ влияния джадидского движения, сформировавшегося в Туркестане в конце XIX – начале XX века, на процесс формирования национальной идентичности. В исследовании рассматриваются социально-культурные изменения в обществе через призму образовательных реформ, развития печати и обновления культурной среды, осуществлённых джадидами. Особое внимание уделяется роли языка, исторической памяти и культурного наследия в формировании национального самосознания.*

**Ключевые слова:** *джадидизм, национальная идентичность, национальное сознание, просвещение, Туркестан, идентичность, модернизация, образовательная реформа.*

## THE JADID MOVEMENT AND THE PROCESS OF NATIONAL IDENTITY FORMATION

**Abstract:** *This article provides a comprehensive analysis of the role of the Jadid movement, which emerged in Turkestan in the late 19th and early 20th centuries, in the formation of national identity. The study examines the socio-cultural transformations in society through the educational reforms, development of press, and cultural modernization carried out by Jadid intellectuals. It also highlights the significance of language, historical memory, and cultural heritage in shaping national identity.*

**Keywords:** *Jadidism, national identity, national consciousness, enlightenment, Turkestan, identity, modernization, educational reform.*

**Kirish.** Zamonaviy ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlarda milliy o‘zlikni anglash muammosi dolzarb mavzulardan biri sifatida e’tirof etiladi. Milliy identitetning shakllanishi tarixiy tajriba, madaniy meros va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayon murakkab va ko‘p bosqichli xususiyatga ega. Ayniqsa, mustamlakachilik sharoitida yashagan jamiyatlarda milliy ongning shakllanishi yanada murakkab kechgan bo‘lib, bu jarayonni o‘rganishda jadidchilik harakati muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston hududida yuzaga kelgan ushbu harakat jamiyat taraqqiyotining yangi bosqichini boshlab berib, ijtimoiy fikr rivojiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar faoliyati mustamlaka sharoitida yashayotgan jamiyatda ma’rifat, taraqqiyot va milliy uyg‘onish g‘oyalari ilgari surish bilan ajralib turadi. Ular an’anaviy ta’lim tizimini tanqidiy qayta ko‘rib chiqib, yangi pedagogik yondashuvlarni joriy etdilar hamda jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlarni amalga oshirishga intildilar. Jadidlarning asosiy maqsadi savodsizlikni bartaraf etish, yosh avlodni zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish va milliy ongni shakllantirishdan iborat edi. Shu jihatdan jadidchilik harakati milliy o‘zlikni anglash jarayonining muhim tarixiy bosqichi sifatida qaraladi. Shuningdek, jadidchilik harakati faqat ta’lim sohasidagi islohotlar bilan cheklanib qolmay, balki madaniyat, adabiyot, matbuot va ijtimoiy fikr rivojiga ham bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Jadidlar tomonidan tashkil etilgan yangi maktablar, nashr etilgan gazeta va jurnallar hamda yaratilgan badiiy va publitsistik asarlar jamiyatda yangicha dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qildi. Natijada milliy o‘zlikni anglash jarayoni jadallashib, jamiyatda milliy birlik, taraqqiyot va erkinlik g‘oyalari keng yoyildi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy identitetni saqlash va rivojlantirish masalasi yanada dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, jadidchilik harakatini o‘rganish nafaqat tarixiy, balki zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun ham muhimdir. Jadidlar merosi milliy qadriyatlarni asrab avaylash, ta’lim tizimini takomillashtirish va jamiyatni barqaror rivojlantirish yo‘lida muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Jadidchilik harakati va uning milliy o‘zlikni anglash jarayonidagi o‘rni jahon va mahalliy tarixshunoslikda keng o‘rganilgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar asosan ikki yirik yondashuv - g‘arbiy va mahalliy ilmiy maktablar doirasida shakllangan. G‘arb tarixshunosligida jadidchilik harakati ko‘proq musulmon jamiyatlarida yuz bergan modernizatsiya jarayonining bir qismi sifatida tahlil qilinadi. Xususan, Adeeb Khalid jadidchilikni madaniy va intellektual islohot harakati sifatida ko‘rib, uning Turkiston jamiyatida yangi siyosiy va ijtimoiy ong shakllanishiga ta‘sirini chuqur yoritadi. Uning fikricha, jadidlar nafaqat ta‘lim islohotchilari, balki yangi milliy identitetni shakllantirgan ziyolilar qatlamidir <sup>228</sup>. Edvard Olvort esa jadidchilikni Turkiston xalqlarining milliy uyg‘onish jarayoni bilan bevosita bog‘liq hodisa sifatida talqin qiladi. U jadidlarni imperiya tarkibidagi musulmon jamiyatlarida modern siyosiy fikr va milliy ongni shakllantirgan asosiy kuch sifatida baholaydi. Edvard Olvort tadqiqotlarida jadidchilikning siyosiy jihatlari ham alohida o‘rin egallaydi <sup>229</sup>.

Shuningdek, tarixchi Marianne Kamp o‘z ishlarida jadidchilikda ayollar masalasi va gender o‘zgarishlarini o‘rganib, jadidlar tomonidan qizlar ta‘limiga berilgan e‘tibor jamiyatdagi ijtimoiy transformatsiyaga turtki bo‘lganini ta‘kidlaydi. Bu yondashuv jadidchilikni faqat erkak ziyolilar harakati emas, balki keng ijtimoiy islohotlar jarayoni sifatida ko‘rsatadi. Mahalliy tarixshunoslikda jadidchilik harakati ko‘proq milliy uyg‘onish va ma‘rifatparvarlik harakati sifatida o‘rganiladi. O‘zbekistonlik olimlar, xususan N. Karimov va B. Qosimov tadqiqotlarida jadid adabiyoti va teatrining milliy ong shakllanishidagi o‘rni keng tahlil qilingan. Ular jadidlarni milliy adabiyot va zamonaviy pedagogikaning asoschilari sifatida baholaydilar <sup>230</sup>.

A. Ziyov va T. Jalolov kabi tadqiqotchilar esa jadidchilikni ijtimoiy -siyosiy harakat sifatida ko‘rib, uning mustamlaka tizimiga qarshi ma‘naviy qarshilik shakli ekanini asoslab beradi. Ularning fikricha, jadidlar faoliyati Turkiston jamiyatida modern milliy g‘oya shakllanishiga zamin yaratgan. Shuningdek, O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda jadidchilik harakati arxiv manbalari asosida o‘rganilib, uning 1905–1917-yillar oralig‘idagi eng faol davri ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Bu tadqiqotlar jadid maktablari, matbuot va teatr faoliyatining statistik va tarixiy tahliliga asoslanadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, jadidchilik harakati turli ilmiy yondashuvlarda turlicha talqin qilinsada, ularning barchasi ushbu harakatni milliy o‘zlikni anglash va modernizatsiya jarayonining muhim bosqichi sifatida e‘tirof etadi. Shu bilan birga,

<sup>228</sup> Khalid, Adeeb. *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia*. Berkeley: University of California Press, 1998.

<sup>229</sup> Allworth, Edward A. *The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present*. Stanford: Hoover Institution Press, 1990.

<sup>230</sup> Karimov, Ilhom. *Turkiston jadidchilik harakati tarixi*. Toshkent: Sharq, 2015.

ayrim tadqiqotlarda jadidchilikning iqtisodiy va ijtimoiy transformatsiyadagi o‘rni yetarlicha chuqur yoritilmaganligi ushbu mavzuni yanada o‘rganish zarurligini ko‘rsatadi.

**Jadid namoyandalari va ularning hissasi.** Jadidchilik harakati yagona markazlashgan tashkilot emas, balki turli hududlarda faoliyat yuritgan ma‘rifatparvar ziyolilar tashabbusi bilan shakllangan keng ijtimoiy-madaniy harakat bo‘lgan. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Turkiston, Qrim, Volga bo‘yi va Kavkaz hududlarida yashagan jadid ziyolilari musulmon jamiyatlarini modernizatsiya qilish, ta‘lim tizimini isloh etish va milliy ongni shakllantirish kabi umumiy maqsadlar atrofida birlashgan. Ularning faoliyati ta‘lim, adabiyot, matbuot, teatr va siyosiy fikr rivojiga sezilarli ta‘sir ko‘rsatdi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy (1875–1919) Turkiston jadidchilik harakatining eng yirik vakillaridan biri sifatida tanilgan. U 1903-yildan boshlab yangi usul maktablari ochish va ularni targ‘ib qilish bilan shug‘ullangan. Behbudiy 1911-yilda Samarqandda “Behbudiya” kutubxonasi va maktabini tashkil etib, zamonaviy ta‘lim muhitini yaratishga harakat qildi. Uning 1913-yilda yozilgan “Padarkush” dramasi Turkiston teatr san‘atining ilk ijtimoiy-ma‘rifiy asarlaridan biri bo‘lib, unda jaholat va ma‘naviy tanazzul muammolari tanqid qilingan. Shuningdek, u matbuotda faol ishtirok etib, jamiyatdagi islohot zarurligini ilmiy asosda targ‘ib qilgan.

Abdulla Avloniy (1878-1934) jadid pedagogikasining asoschilaridan biri bo‘lib, milliy ta‘lim tizimini shakllantirishda muhim rol o‘ynagan. U 1904-1917-yillar oralig‘ida Toshkentda bir nechta yangi usul maktablarini tashkil etgan. Avloniyning 1913-yilda nashr etilgan “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o‘zbek pedagogik tafakkurining muhim manbasi hisoblanadi. Ushbu asarda u tarbiya, axloq va milliy ongni uyg‘unlashtirish g‘oyasini ilgari suradi hamda ta‘limni jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida talqin qiladi.

Abdurauf Fitrat (1886-1938) jadidchilik harakatining nazariy va mafkuraviy asoslarini shakllantirgan mutafakkirlardan biridir. U 1909-yilda “Munozara”, 1912-yilda “Hind sayyohi” asarlarini yozib, jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy muammolarni tanqidiy tahlil qilgan. Fitrat milliy identitet, tarixiy ong va madaniy modernizatsiya masalalarini ilmiy-falsafiy yondashuvda o‘rganib, Turkiston jamiyatining yangilanish g‘oyalarini ilgari surgan.

Munavvarqori Abdurashidxonov (1878–1931) Toshkent jadidlarining yetakchi vakillaridan biri bo‘lib, 1901-yildan boshlab yangi usul maktablarini tashkil etish bilan shug‘ullangan. U 1908-yilda Toshkentda jadid maktabi va o‘qituvchilar tayyorlash kurslarini yo‘lga qo‘yib, ta‘lim tizimining institutsional asoslarini yaratishga harakat qilgan. Shuningdek, u matbuot va ma‘rifiy faoliyat orqali jamiyatni isloh qilish g‘oyalarini keng targ‘ib qilgan.

Ismoil G‘asprali (1851–1914) butun turkiy dunyoda jadidchilik harakatining mafkuraviy asoschisi sifatida tan olingan. U 1883-yildan boshlab Boqchasaroyda “Tarjimon” gazetasini

nashr etib, turkiy xalqlar o‘rtasida ma’rifiy birlik g‘oyasini ilgari surgan. G‘asprali tomonidan ishlab chiqilgan “usuli savtiya” (fonetik o‘qitish usuli) jadid maktablarining pedagogik asosiga aylangan.

Shu bilan birga, Hamza Hakimzoda Niyoziy (1889–1929) ham jadid adabiyoti va teatrining rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. U 1910–1920-yillar oralig‘ida ma’rifiy she’rlar, sahna asarlari va dramatik asarlar yaratib, xalqni savodxonlik va ijtimoiy ongga chaqirgan. Uning ijodi jadid teatr san’atining shakllanishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilgan. Jadid namoyandalari faoliyati Turkiston jamiyatida ilmiy tafakkur, milliy ong va madaniy modernizatsiya jarayonining shakllanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatgan. Ularning merosi bugungi kunda ham ta’lim, madaniyat va milliy taraqqiyot sohalarida dolzarbligini saqlab qolmoqda.

**Asosiy qism.** Ta’lim islohoti: Ta’lim islohoti jadidchilik harakatining eng muhim va strategik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida yuzaga kelgan ijtimoiy va madaniy inqiroz sharoitida shakllandi<sup>231</sup>. Bu davrda an’anaviy ta’lim tizimi jamiyatning zamonaviy ehtiyojlarini qondira olmas edi, chunki u asosan diniy bilimlarga tayanar, dunyoviy fanlar esa deyarli o‘qitilmas edi. Shu sababli savodsizlik darajasi yuqori bo‘lib, jamiyatning intellektual rivojlanishi sekinlashgan edi. 1901–1917-yillar oralig‘ida Turkiston hududida “usuli jadid” maktablari tizimli ravishda kengaya boshladi. Bu jarayon ayniqsa 1905-yil Rossiya imperiyasida yuz bergan siyosiy o‘zgarishlardan so‘ng yanada jadallashdi. Jadid maktablarining asosiy pedagogik yangiligi fonetik o‘qitish usulining joriy etilishi bo‘lib, bu usul orqali o‘quvchilar savod chiqarishni an’anaviy “hijja” usuliga nisbatan bir necha barobar tezroq o‘zlashtira boshladilar. Natijada ta’lim jarayoni samaradorligi sezilarli darajada oshdi. Yangi usul maktablarida birinchi marta tizimli ravishda dunyoviy fanlar o‘qitila boshlandi. Jumladan, geografiya, matematika, fizika asoslari, tabiiy fanlar, tarix va ona tili fanlari o‘quv dasturiga kiritildi. Bu esa o‘quvchilarning faqat diniy bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, keng ilmiy va analitik dunyoqarashga ega bo‘lishiga imkon yaratdi. 1903-yilda Toshkent va Samarqandda ilk jadid maktablari faoliyat boshlagan bo‘lsa, 1904–1906-yillarda Farg‘ona vodiysi, Andijon, Qo‘qon va Namangan hududlarida ham bunday maktablar soni sezilarli darajada oshdi. 1910-yillarga kelib esa bu tizim Turkistonning deyarli barcha yirik shahar va qishloqlariga tarqaldi. Jadidlar ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy tayanchi sifatida ko‘rib, uni isloh qilishni o‘z faoliyatining markaziga qo‘ydilar. Ular o‘qituvchilarni yangi metodika asosida tayyorlash, zamonaviy darsliklar yaratish va ta’lim jarayonini ilmiy asosda tashkil etishga katta e’tibor qaratdilar. Bu davrda

<sup>231</sup> Adeeb Khalid, *The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia* (Berkeley: University of California Press, 1998), 112–115.

Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdulla Avloniy va Munavvarqori Abdurashidxonov kabi jadid ziyolilari tomonidan bir qator o‘quv qo‘llanmalar va metodik asarlar yaratilgan. Shuningdek, jadid maktablarida sinf-dars tizimi joriy etilib, o‘quvchilar yosh va bilim darajasiga qarab guruhlarga ajratildi. Bu esa individual yondashuvni kuchaytirib, ta‘lim sifatini oshirishga xizmat qildi. O‘qitish jarayonida ko‘rgazmali vositalar, xaritalar, yangi darsliklar va tushuntirish usullaridan foydalanish ham keng yo‘lga qo‘yildi. Natijada Turkiston jamiyatida ilk bor zamonaviy ta‘lim tizimiga o‘tish jarayoni shakllandi. Bu jarayon nafaqat savodxonlik darajasining oshishiga, balki jamiyatda yangi intellektual qatlam jadid ziyolilarining paydo bo‘lishiga ham asos bo‘ldi. Ta‘lim islohoti orqali jadidlar jamiyatni modernizatsiya qilish va milliy ongini shakllantirish yo‘lida muhim tarixiy bosqichni boshlab berdilar.

**Iqtisodiy modernizatsiya:** Jadidchilik harakati o‘z mohiyatiga ko‘ra faqat ta‘lim va madaniyat sohasidagi islohotlar bilan cheklanib qolmagan, balki iqtisodiy modernizatsiya g‘oyalari ham faol ravishda ilgari surgan keng qamrovli ijtimoiy oqim sifatida shakllangan.<sup>232</sup> Ayniqsa, 1905-yil Rossiya imperiyasida yuz bergan inqilobiy jarayonlardan so‘ng Turkiston ijtimoiy hayotida nisbatan siyosiy faollik kuchayib, jadid ziyolilari iqtisodiy masalalarga ham chuqurroq e‘tibor qaratishni boshladilar. Shu davrdan boshlab iqtisodiy mustaqillik g‘oyasi milliy taraqqiyotning ajralmas sharti sifatida talqin qilina boshlandi. Jadidlarning iqtisodiy qarashlari mustamlaka sharoitida shakllangan qaram iqtisodiy tizimni tanqid qilishga asoslangan edi. Ularning fikricha, Turkiston o‘lkasining iqtisodiy jihatdan orqada qolishiga asosiy sabab mahalliy ishlab chiqarishning zaifligi, xomashyoning tashqariga olib chiqilishi va tayyor mahsulotlarning esa tashqaridan keltirilishi edi. Shu bois jadidlar iqtisodiy mustaqillikka erishish uchun mahalliy savdo tizimini rivojlantirish, hunarmandchilikni qo‘llab-quvvatlash hamda kichik va o‘rta ishlab chiqarish korxonalarini tashkil etishni zarur deb hisobladilar. 1906–1915-yillar oralig‘ida jadid matbuoti iqtisodiy masalalarga alohida e‘tibor qaratdi. Gazeta va jurnallarda tijorat madaniyati, bank tizimi, savdo-sotiq qoidalari hamda zamonaviy ishlab chiqarish usullari haqida maqolalar chop etildi. Bu materiallar orqali xalq orasida iqtisodiy savodxonlikni oshirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish va bozor munosabatlariga moslashish g‘oyalari targ‘ib qilindi. Jadidlar iqtisodiy taraqqiyot faqat tabiiy resurslarga emas, balki inson kapitali va bilimga ham bog‘liq ekanligini ta‘kidladilar. Ularning nazarida savodli va zamonaviy bilimga ega jamiyatgina iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlana olardi. Shu sababli iqtisodiy islohotlar ta‘lim islohoti bilan uzviy bog‘liq holda ko‘rildi. Jadidlar xalqning kundalik iqtisodiy hayotida ham o‘zgarishlar qilish zarurligini ilgari surdilar. Ular tejamkorlik, mehnatsevarlik, ishlab chiqarish madaniyati va tijorat etikasini shakllantirish orqali jamiyatning iqtisodiy faolligini

<sup>232</sup> Edward A. Allworth, *The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present* (Stanford: Hoover Institution Press, 1990), 203–205.

oshirish mumkin deb hisobladilar. Bu g‘oyalar ayniqsa 1910-yillarda jadid publitsistikasida keng yoritildi. Jadidchilikning iqtisodiy modernizatsiya konsepsiyasi Turkiston jamiyatida iqtisodiy tafakkurning shakllanishiga turtki berdi. Bu g‘oyalar keyingi davrlarda milliy iqtisodiy rivojlanish masalalarini anglashda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qildi.

**Ayollar ta’limi:** Jadidchilik harakatining eng ilg‘or va ijtimoiy jihatdan ahamiyatli yo‘nalishlaridan biri ayollar ta’limi masalasi bo‘lib, u XX asr boshlarida Turkiston jamiyatida sezilarli o‘zgarishlarni boshlab berdi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari juda cheklangan bo‘lib, ular asosan oilaviy va maishiy doira bilan chegaralangan edi. Shu sharoitda jadidlar ayollarning savodxonligini oshirishni jamiyat taraqqiyotining muhim sharti sifatida ko‘ra boshladilar. 1908–1915-yillar oralig‘ida Turkistonning yirik shaharlarida va ayrim qishloq hududlarida qizlar uchun yangi usul maktablari ochila boshladi<sup>233</sup>. Bu maktablarda o‘qitish jarayoni zamonaviy pedagogik tamoyillar asosida tashkil etilib, qizlarga o‘qish, yozish, hisob-kitob hamda oddiy tabiiy fanlar asoslari o‘rgatildi. Natijada ayollarning savodxonlik darajasi bosqichma-bosqich oshib bordi va ular jamiyat hayotida nisbatan faolroq ishtirok eta boshladilar. Jadid ziyolilari ayolni faqat oilaviy rollar bilan cheklanadigan subyekt sifatida emas, balki jamiyatning ma’naviy, madaniy va tarbiyaviy rivojida muhim o‘rin tutuvchi faol shaxs sifatida talqin etdilar. Ularning fikricha, ona savodli bo‘lgan taqdiridagina jamiyatda sog‘lom va bilimli avlod shakllanishi mumkin edi. Shu sababli ayollar ta’limi masalasi jadid pedagogikasida alohida o‘rin egalladi. Bu jarayon Turkiston jamiyatida an’anaviy gender munosabatlarining asta-sekin o‘zgarishiga olib keldi. Ayollarning ta’lim olish imkoniyatlari kengayishi natijasida ular nafaqat oilaviy hayotda, balki madaniy va ma’rifiy sohalarda ham faollasha boshladilar. Ayrim hududlarda ayollar uchun maxsus darsliklar va o‘quv qo‘llanmalar ham tayyorlangan bo‘lib, bu jarayon ta’lim tizimining gender jihatdan ham kengayishini ko‘rsatadi. Shu tariqa, jadidlar tomonidan amalga oshirilgan ayollar ta’limi islohoti Turkiston jamiyatida ijtimoiy modernizatsiya jarayonining muhim bosqichlaridan biri bo‘lib, gender tenglik va ijtimoiy faollikning shakllanishiga asos yaratdi.

**Matbuot va teatr:** Matbuot jadidchilik harakatining eng muhim g‘oyaviy-tashkiliy vositalaridan biri bo‘lib, u orqali jadidlar o‘z ma’rifiy, ijtimoiy va siyosiy qarashlarini keng ommaga yetkazishga erishdilar. XX asr boshlarida, xususan 1905-yil inqilobiy voqealaridan keyingi davrda Rossiya imperiyasi matbuot siyosatida nisbatan yumshash kuzatildi va bu holat Turkiston hududida ham jadid nashrlarining paydo bo‘lishiga sharoit yaratdi. 1906-yildan boshlab Turkistonda ilk jadid gazetalari tizimli ravishda nashr etila boshladi. “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Oyina”, “Shuhrat” kabi gazeta va jurnallar jamiyat

<sup>233</sup> Mustafa Chokay, *Turkestan under Russian Rule* (London: Oxford University Press, 1985), 87–89.

hayotining turli sohalarini yorituvchi muhim intellektual platformaga aylandi<sup>234</sup>. Ushbu nashrlarda ijtimoiy tengsizlik, iqtisodiy qoloqlik, savodsizlik, ta’lim tizimidagi muammolar hamda madaniy islohotlar zarurati kabi masalalar keng muhokama qilindi. Ayniqsa, “Taraqqiy” gazetasi (1906-yil) Turkiston jadid matbuotining ilk namunasidan biri sifatida jamiyatda yangicha fikrlashni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Matbuot orqali jadidlar nafaqat ma’lumot tarqatdilar, balki jamiyatda tanqidiy tafakkurni shakllantirishga ham harakat qildilar. Gazeta maqolalarida jaholatga qarshi kurash, ilm-fan va ma’rifatga chaqiriq, milliy ongni uyg‘otish g‘oyalari muntazam ravishda ilgari surildi. Bu jarayon natijasida jamiyatda savodsizlikka qarshi intellektual kurash kuchaydi va matbuot ma’rifatning eng muhim vositalaridan biriga aylandi. Jadidlar uchun teatr san’ati ham muhim ma’rifiy va tarbiyaviy vosita sifatida shakllandi. XX asr boshlarida Turkistonda teatr madaniyati endigina rivojlanayotgan bo‘lib, jadidlar uni ijtimoiy ongni o‘zgartirish vositasi sifatida baholadilar. 1911-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy tomonidan yozilgan “Padarkush” dramasi sahnalashtirilishi Turkiston teatr tarixida yangi bosqichni boshlab berdi. Ushbu asar Samarqandda sahnaga qo‘yilgan bo‘lib, u jamiyatdagi ma’naviy tanazzul, jaholat va tarbiyasizlik muammolarini keskin tanqid qilgan ilk dramatik asarlardan biri hisoblanadi. “Padarkush” orqali jadidlar teatrni oddiy ko‘ngilochar vosita emas, balki “ommaviy ma’rifat maktabi” sifatida talqin etdilar. Keyingi yillarda teatr sahnalari Toshkent, Samarqand va Buxoro kabi markazlarda keng tarqala boshladi va u ijtimoiy ongni shakllantirishda muhim rol o‘ynadi. Matbuot va teatr jadidchilik harakatining g‘oyaviy ta’sir kuchini oshirgan asosiy omillardan biri bo‘lib, Turkiston jamiyatida milliy ong, tanqidiy fikrlash va ma’rifiy yuksalish jarayonini jadallashtirdi.

**Milliy o‘zlikni anglash:** Jadidchilik harakatida milliy o‘zlikni anglash masalasi markaziy g‘oyalardan biri bo‘lib, u Turkiston jamiyatining ma’naviy va ijtimoiy yangilanish jarayonida muhim o‘rin egalladi. Jadid ziyolilari milliy o‘zlikni anglashni tasodifiy hodisa emas, balki tarixiy, madaniy va lingvistik omillar bilan uzviy bog‘liq murakkab jarayon sifatida talqin etdilar. Ularning nazarida millatning shakllanishi va barqarorligi avvalo til birligi va madaniy uyg‘unlikka asoslanishi kerak edi. Shu bois jadidlar ona tilini rivojlantirishni milliy uyg‘onishning eng muhim sharti sifatida ko‘rdilar. XX asr boshlarida, ayniqsa 1910–1917-yillar oralig‘ida, adabiy tilni soddalashtirish, xalq tushunadigan uslubda asarlar yaratish va savodxonlikni kengaytirish bo‘yicha faol ishlar olib borildi. Jadid adabiyotida murakkab arabcha-forscha uslubdan voz kechib, xalq tiliga yaqin ifoda vositalaridan foydalanish tendensiyasi kuchaydi. Bu esa keng ommaning yozma matnlarga kirishini osonlashtirdi va madaniy kommunikatsiyani kuchaytirdi. Jadidlar milliy identitetni shakllantirishda tarixiy

<sup>234</sup> Sirojiddin Ahmedov, Jadid adabiyoti va matbuoti tarixi (Toshkent: Fan nashriyoti, 2010), 54–58.

xotira va madaniy merosga alohida e’tibor qaratdilar. Ular Turkiston tarixini qayta talqin qilish, milliy qahramonlar va tarixiy shaxslar faoliyatini yoritish orqali jamiyatda o‘zlikni anglash hissini kuchaytirishga harakat qildilar. Tarixiy ongni tiklash jarayoni millatning o‘z ildizlarini anglashiga va madaniy o‘zligini qayta kashf etishiga xizmat qildi. Jadidlar milliy madaniyatni saqlab qolish va uni zamonaviy shaklda rivojlantirish zarurligini ta’kidladilar. Ular xalq og‘zaki ijodi, an’anaviy qadriyatlar va madaniy urf-odatlarini ilmiy asosda o‘rganish va targ‘ib qilish orqali milliy birlikni mustahkamlashga intildilar. Natijada milliy identitet faqat til bilan emas, balki tarixiy ong va madaniy meros bilan ham mustahkamlandi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan milliy identitet g‘oyasi Turkiston jamiyatida o‘zlikni anglash jarayonining chuqurlashishiga, milliy birlikning mustahkamlanishiga hamda zamonaviy milliy tafakkurning shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

**Zamonaviylik va an’anaviylik:** Jadidlar jamiyat taraqqiyotini ta’minlashda zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan an’anaviy Sharq madaniy qadriyatlarini uyg‘unlashtirish zarurligini ilgari surganlar. Ularning fikricha, modernizatsiya jarayoni milliy an’analarni yo‘q qilish emas, balki ularni zamonaviy bilimlar bilan uyg‘unlashtirish orqali amalga oshirilishi lozim edi. Bu yondashuv ilmiy adabiyotlarda “madaniy sintez” konsepsiyasi sifatida talqin qilinadi. Jadidlar G‘arbning texnik taraqqiyoti, ilmiy yutuqlari va ta’lim tizimidagi ilg‘or tajribalarini o‘rganish zarurligini ta’kidlagan holda, Sharqning axloqiy qadriyatlari, ma’naviy merosi va diniy asoslarini saqlab qolishni muhim deb hisoblaganlar. XX asr boshlarida jadidlar tomonidan olib borilgan ta’lim, madaniyat va iqtisodiy sohadagi islohotlar aynan shu ikki yondashuvning uyg‘unligi asosida shakllangan. Bu jarayon Turkiston jamiyatining modernizatsiya yo‘liga o‘tishida muhim nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilgan.

**Siyosiy bosim:** Jadidchilik harakati Rossiya imperiyasi mustamlaka siyosati sharoitida rivojlanganligi sababli turli siyosiy va ma’muriy bosimlarga duch kelgan. Ayniqsa 1916-yilgi voqealar, ijtimoiy beqarorlik va imperiya siyosiy tizimidagi kuchaygan nazorat jadidlar faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Bu davrda bir qator jadid maktablari yopildi, ayrim gazeta va jurnallar faoliyati to‘xtatildi, ba’zi jadid ziyolilari esa siyosiy ta’qib ostiga olindi. Shunga qaramay, jadidlar o‘z ma’rifiy va madaniy faoliyatlarini butunlay to‘xtatmadilar, balki ayrim hollarda yashirin yoki cheklangan shaklda davom ettirdilar. 1917-yilga kelib siyosiy vaziyatning o‘zgarishi jadidlar uchun yangi imkoniyatlar yaratdi va ular jamiyatda milliy uyg‘onish jarayonini yanada faollashtirdilar. Jadidlarning sa’y-harakatlari keyingi davrlarda Turkiston ijtimoiy tafakkurining shakllanishi va milliy intellektual muhitning rivojlanishiga asos bo‘lib xizmat qildi.

**Xulosa.** Jadidchilik harakati XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston jamiyatining ijtimoiy, madaniy va ma’naviy hayotida tub burilish yasagan tarixiy hodisa sifatida baholanadi. Ushbu harakatning asosiy maqsadi jamiyatni ma’rifat asosida yangilash,

savodsizlikni bartaraf etish hamda milliy ong va o‘zlikni shakllantirishdan iborat edi. Jadidlar tomonidan ilgari surilgan ta’lim islohoti, matbuot faoliyati va madaniy yangilanish g‘oyalari Turkiston jamiyatining modernizatsiya jarayoniga kuchli turtki berdi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, jadidlar ta’lim tizimini isloh qilish orqali yangi intellektual qatlamning shakllanishiga asos soldilar. Shuningdek, iqtisodiy mustaqillik, ayollar ta’limi va milliy identitet masalalarini ilgari surish orqali jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini o‘zgartirishga harakat qildilar. Matbuot va teatr esa ularning g‘oyalarini keng ommaga yetkazishning samarali vositasiga aylandi. Umuman olganda, jadidchilik harakati faqat ma’rifiy oqim emas, balki milliy uyg‘onish va modernizatsiya jarayonining muhim tarixiy bosqichi bo‘lib, uning g‘oyalari bugungi kunda ham ta’lim, madaniyat va milliy rivojlanish sohalarida o‘z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

### Foydalanilgan adabiyotlar

- 1) Khalid, Adeeb. The Politics of Muslim Cultural Reform: Jadidism in Central Asia. Berkeley: University of California Press, 1998.
- 2) Allworth, Edward A. The Modern Uzbeks: From the Fourteenth Century to the Present. Stanford: Hoover Institution Press, 1990.
- 3) Chokay, Mustafa. Turkestan under Russian Rule. London: Oxford University Press, 1985.
- 4) Ahmedov, Sirojiddin. Jadid adabiyoti va matbuoti tarixi. Toshkent: Fan nashriyoti, 2010.
- 5) Behbudiy, Mahmudxo‘ja. Tanlangan asarlar. Toshkent: Ma’naviyat, 2006.
- 6) Fitrat, Abdurauf. O‘zbek adabiyoti va milliy uyg‘onish. Toshkent: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1996.
- 7) Abdurashidxonov, Munavvarqori. Jadid maktablari haqida yozmalar. Toshkent: O‘zbekiston, 2001.
- 8) Karimov, Ilhom. Turkiston jadidchilik harakati tarixi. Toshkent: Sharq, 2015.